

DON VA DUKKAKLI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI (PhD) ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JANUBIY DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

BEGIMQULOVA DILNOZA MEYLIYEVNA

YUMSHOQ BUG‘DOY DONI TARKIBIDA TEMIR MIQDORINI
OSHIRUVCHI AGROTEXNIK TADBIRLARNI ISHLAB CHIQISH

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Andijon – 2026

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of the dissertation abstract of a Doctor of Philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Begimqulova Dilnoza Meyliyevna

Yumshoq bug‘doy doni tarkibida temir miqdorini oshiruvchi agrotexnik
tadbirlarni ishlab chiqish..... 3

Begimkulova Dilnoza Meylievna

Разработка агротехнических мероприятий, повышающих содержание железа
в зерне мягкой пшеницы..... 21

Begimkulova Dilnoza Meyliyevna

Development of crop management practices for improving iron accumulation in
soft wheat..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

DON VA DUKKAKLI EKNLAR ILMY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI (PhD) ILMY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

JANUBIY DEHQONCHILIK ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

BEGIMQULOVA DILNOZA MEYLIYEVNA

YUMSHOQ BUG‘DOY DONI TARKIBIDA TEMIR MIQDORINI
OSHIRUVCHI AGROTEKNIK TADBIRLARNI ISHLAB CHIQISH

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) Dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Qx1114 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ddeiti.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurbekov Aziz Isroilovich,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponenlar:

Tadjiyev Karim Mardanakulovich,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent

Bozorov Xolmurod Maxmudovich,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, kata ilmiy xodim.

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.


Falsafa doktori (PhD) dissertasiya himoyasi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi PhD.08/2025.27.12.Qx.04.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «25» 04, soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170600 Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Andijon ko'chasi 36-uy. Tel.: (+99874) 373-12-05; faks: (+99874) 373-12-05; e-mail: ddeiti19@mail.ru; Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).


Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi bilan Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 42-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Andijon ko'chasi 36-uy. Tel.: (+99874) 373-12-05.


Dissertasiya avtoreferati 2026 yil «10» 04 kuni tarqatildi.

2026 yil «10» 04 dagi 3 raqamli reestr bayonnomasi).




R.I. Siddiqov,
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor.


M.Ya. Djo'rayev,
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, q.x.f.d., dotsent.


S.O. Abduraxmonov,
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda bug‘doy “dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlarida yiliga 227 mln. gektar maydonga ekib kelinayotgan bo‘lsa, shundan tuproqqa No-till usulida ishlov berilib ekilgan maydon 15 foiz atrofini tashkil etadi”¹. Bu esa g‘allachilikda No-till usulidan foydalanishda tuproq sharoitlarini hisobga olishni taqozo etadi. Ammo, bug‘doydan bo‘shagan maydonlarga takroriy ekinlar sifatida dukkakli ekinlar ekishda “No-till usulidan keng foydalanilishi natijasida bugungi kunda umumiy maydoni 205 mln gektarni tashkil qilmoqda”². Dunyoda aholi sonining kundan-kunga ko‘payib borayotgani olimlar oldiga oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishdek muhim vazifalarni qo‘yadi. Shu bilan birga yetishtirilayotgan don tarkibida temir modda miqdorini ko‘paytiruvchi texnologiyalarni qo‘llash esa donlarning texnologik sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanishiga, iste‘mol qiymatining oshishiga olib keladi. Ushbu vazifalar ijrosini amalga oshirishda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishning resurstejamkor agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda bug‘doy yetishtirishda yetakchi o‘rinlarni egallab kelayotgan bir qator davlatlarda temir moddasiga boy bo‘lgan don hosili yetishtirish texnologiyasi sifatida o‘sishni sozlovchi modddlar hamda mikroo‘g‘itlardan keng foydalanish natijasida don tarkibida temir moddasi miqdorini 12-15 foizgacha ko‘paytirishga erishilgan bo‘lsa, resurstejamkor texnologiya sifatida tuproqqa No-till texnologiyasida ishlov berib yetishtirish texnologiyasini ilmiy asoslangan holda qo‘llash orqali esa mahsulot yetishtirish uchun sarflanayotgan harajatlarda 30-35 foizgacha qisqarib, iqtisodiy rentabellik yuqori bo‘lishiga erishganlar. Aholini arzon, sifatli va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirib borishda ham arzon, ham sifat jihatdan yuqori bo‘lgan don hosili yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirib borish muhim ahamiyatga egadir.

So‘ngi yillarda Respublikamiz aholisini to‘yimliligi yuqori bo‘lgan sifatli non mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini bir me‘yorda qondirib borishda Xukumatimiz tomonidan tub islohotlar olib borilmoqda. Xususan, xorijdan kasallik va zararkunandalarga chidamli, suvsizlikka bardoshli, yuqori hosil yetishtirish potensialiga ega bo‘lgan 100 dan ortiq navlar Respublikamiz iqlim sharoitiga intradukatsiya qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmonida “..... oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish” bo‘yicha vazifalar belgilangan bo‘lib, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 01 apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF PQ-4243-sonli Farmoni, 2023 yil 1 apreldagi “Suv

¹ <https://www.agrifarming.in/wheat-farming-with-zero-tillage-benefits-challenges-and-best-practices?>

² <https://www.no-tillfarmer.com/articles/10906-worldwide-no-till-acres-increase-93-in-10-years?>

resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-107-sonli, 2026 yil 5 fevraldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kuzgi bug'doy urug'larini turli usullarda ekib yetishtirish mineral o'g'itlarni qo'llash shuningdek, barg orqali oziqlantirish va to'g'ridan-to'g'ri ekish usulining kuzgi bug'doy hosildorligi, donning texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha xorijiy davlatlarda Amir Kassam, Raj Gupta, Emilio Sanches, Patrick H.Brown, Hamzeh Rawashdeh, Baozhen Hao, Maria Zimbovskaya, Chun-Qin Zou, Xin-Ping Chen, Al-Juthery va Respublikamiz tuproq iqlimi sharoitida R.I.Siddiqov, N.Xalilov, A.I.Nurbekov, O.A.Amanov, B.M.Azizov G'.O.Uzoqov, D.T.Jurayev, B.K.Yusupov, S.A.Tursunov, N.M.Nematov, M.Tog'ayeva va boshqa olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doy yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalardan foydalangan holda doni tarkibida temir moddasi yuqori bo'lgan hosil yetishtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi yumshoq bug'doy yetishtirishda ekish usullari va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish tizimlarini optimallashtirish asosida resurstejovchi, temir moddasiga boy don yetishtirish agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tarkibida temir miqdori bo'lgan mikroo'g'itlar bilan oziqlantirish va to'g'ridan-to'g'ri ekish usulining kuzgi bug'doy o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini aniqlash;

- och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning hosildorligiga to'g'ridan-to'g'ri ekish usuli hamda ildizdan tashqari oziqlantirishning ta'sirini o'rganish;

- tarkibida temir miqdori bo'lgan mikroo'g'itlar bilan bargdan oziqlantirish va to'g'ridan-to'g'ri ekish usulining kuzgi bug'doyning barg yuzasi maydoni, o'simlikning quruq massasi to'plashi va fotosintez sof mahsuldorligiga ta'sirini aniqlash;

- kuzgi bug'doy donining texnologik sifat ko'rsatkichlari va don tarkibidagi temir moddasiga qo'llanilgan mikroo'g'itlarni ta'sirini o'rganish;

- o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida o'rganilgan va qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini baholash;

- kuzgi bug'doyni to'g'ridan-to'g'ri ekish usulida ekish va temir miqdori bo'lgan mikroo'g'itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirish orqali yuqori hosildor, donning sifat ko'rsatkichlari yuqori, iqtisodiy samarador yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida och tusli bo'z tuproqlar, kuzgi bug'doyning "Shukrona" navi, an'anaviy (SZU-3,6) va to'g'ridan-to'g'ri (SA 14600 A)

seyalkalarida ekish, Karbamid, Temir kuporasi, Combi Fe, Temir UDK mikroo'g'itlar foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti Kuzgi bug'doyni turli usullarda ekib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlar me'yorlariga qo'shimcha ravishda suspenziya turlarining turli me'yorlarda qo'llashning kuzgi bug'doyning ko'chat qalinligiga, o'suv davrining davomiyligiga, o'sib-rivojlanishiga, barg sathining shakllanishi va biologik quruq madda to'planishiga, fotosintez sof mahsuldorligiga, hosil elementlarining shakllanishiga, don hosildorligi va donning biokimyoviy tarkibiga ta'sirini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari Dala va va ishlab chiqarish tajribalari, biometrik o'lchashlar, fenologik kuzatish va turli tahlillar «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», tuproqning agrofizikaviy tahlillarini o'tkazishda «Методы агрофизических исследований», tuproqni agrokimyoviy tahlil qilishda «Методы агрохимических анализов почв и растений» usulidan foydalanildi. Olingan dala tajribalaridan olingan natijalar SPSS-17 zamonaviy dasturi asosida matematik tahlil qilindi, don hosildorligini matematik-statistik tahlili esa B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiyati bo'yicha amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doyni an'anaviy va to'g'ridan-to'g'ri ekish texnologiyalarining samaradorligi aniqlangan;

urug'lar to'g'ridan-to'g'ri ekilib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirish urug'larni an'anaviy usulda ekib, ma'danli o'g'itlarning $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan nisbatan iqtisodiy samaradorligi 23,2 foizgacha yuqori bo'lishi isbotlangan;

Urug'larni to'g'ridan-to'g'ri ekish usulida ekib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda tuplanish va naychalash fazalarida "Combi Fe" mikroo'g'itidan 0,8 l/ga me'yorlarda bargi orqali qo'llab yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Urug'larni to'g'ridan-to'g'ri ekish usulida ekib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda naychalash va boshoqlash fazalarida "Temir UDK" mikroo'g'itidan 0,6 l/ga me'yorda bargi orqali qo'llab yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Kuzgi bug'doy urug'larini an'anaviy usulda ekib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda naychalash va boshoqlash fazalarida 0,6 l/ga me'yorda bargi orqali "Temir UDK" mikroo'g'iti bilan suspenziya ko'rinishida oziqlantirish amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinligini 295,7 dona/m², unib chiqqan ko'chatlarning yashovchanligini 85,3 foiz, urug'larini to'g'ridan-to'g'ri ekish usulda ekib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda tuplanish va naychalash fazalarida 0,8 l/ga me'yorda bargi orqali "Combi Fe" mikroo'g'iti bilan oziqlantirish amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinligini 313,7 dona/m², unib chiqqan ko'chatlarning yashovchanligini 86,2 foiz bo'lishini ta'minlab, ko'chat qalinligi 40,6-45,8 dona/m²

gacha, unib chiqqan ko'chatlarning yashovchanligi 4,7-7,0 foizgacha yuqori natija ko'rsatgani kuzatilgan;

Kuzgi bug'oy urug'larini an'anaviy va to'g'ridan-to'g'ri usullarida ekib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda tuplanish va naychalash fazalarida 0,8 l/ga me'yorda bargi orqali "Combi Fe" va naychalash va boshoqlash fazalarida 0,6 l/ga me'yorda bargi orqali "Temir UDK" mikroo'g'iti bilan oziqlantirish amal davri oxirida poya balandligini 25,4-31,4 sm gacha, umumiy poyalar sonini 255,0-328,4 dona/m² gacha yuqori bo'lishini ta'minlangan bo'lsa, ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda naychalash va boshoqlash fazalarida 0,6 l/ga me'yorda "Temir UDK" mikroo'g'iti va 15,0 kg/ga me'yorida "Karbamid" o'g'iti bilan bargi orqali suspenziya ko'rinishida oziqlantirish mahsuldor poyalar sonini 237,2-245,0-dona/m² gacha yuqori bo'lishiga olib kelgani qayd etilgan;

Kuzgi bug'doy urug'larini an'anaviy usulda ekilib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda tuplash, naychalash va boshoqlash fazalarida 5,0 kg/ga me'yorda "Temir kuporosi" mikroo'g'iti bilan bargi orqali suspenziya ko'rinishida oziqlantirilganida quruq modda to'plash ma'dali o'g'itlar va suspenziyaning turli me'yolari qo'lanilgan variantlarga nisbatan quruq modda to'plash 0,80-3,85 g/tup, barg yuzasining shakllanishi 4,2-113,2 sm²/tup gacha yuqori natija ko'rsatgan bo'lsa, urug'lar to'g'ridan-to'g'ri usulida ekilib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda tuplanish, naychalash va boshoqlash fazalarida 5,0 kg/ga me'yorda "Temir kuporosi" mikroo'g'iti qo'llanilganida quruq modda to'plash ma'dali o'g'itlar va suspenziyaning turli me'yolari qo'lanilgan variantlarga nisbatan quruq modda to'plash 0,45-4,10 g/tup gacha, tuplash va naychalash fazalarida 0,8 l/ga me'yorlarda qo'llanilganida esa barg yuzasi 155,0 sm²/tup ga teng bo'lib, ma'dali o'g'itlar va suspenziyaning turli me'yolari qo'lanilgan variantlarga nisbatan barg yuzasi 7,6-79,0 sm²/tup gacha yuqori natija ko'rsatgani aniqlangan;

Kuzgi bug'doy urug'lari an'anaviy usulda ekilib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda tuplash va boshoqlash fazalarida 0,6 l/ga me'yorlarda bargi orqali "Temir UDK" mikroo'g'itini suspenziya sifatida qo'llash bir boshoqdagi don sonini 42,3 dona, 1000 dona don vaznini 40,7 g, don hosildorligini 65,4 s/ga, rentabellik darajasini 25,1 foiz bo'lishini ta'minlangan bo'lsa, urug'lari to'g'ridan-to'g'ri ekish usulda ekilib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda tuplash va naychalash fazalarida 0,8 l/ga me'yorlarda bargi orqali "Combi Fe" mikroo'g'itini suspenziya sifatida qo'llash bir boshoqdagi don sonini 45,3 dona, 1000 dona don vaznini 43,5 g, don hosildorligini 77,0 s/ga, rentabellik darajasini 61,9 foiz bo'lishini ta'minlagani qayd etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining matematik-statistik ishlovdan o'tkazilganligi hamda olingan nazariy natijalarni amaliy natijalar bilan asoslanganligi, kuzatilgan qonuniyatlar va olingan xulosalarning mosligi, olingan ma'lumotlar mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi va tadqiqot natijalari ishlab chiqarish sharoitiga joriy etilganligi, Respublika va Xalqaro ilmiy konferensiyalarda ma'ruzalar qilinganligi ilmiy ishning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qashqadaryo viloyatining och tusi o‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doy urug‘larini an’anaviy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish usullarida ekib, o‘sov davrida ma‘danli o‘g‘itlar me‘yorlariga qo‘shimcha ravishda o‘g‘it va mikroo‘g‘it suspenziyalarining turli me‘yolari qo‘lanilganida ko‘chat qalinligiga, o‘sov davrining davomiyligiga, o‘sov-rivojlanishiga, barg sathining shakllanishi va biologik quruq madda to‘planishiga, fotosintez sof mahsuldorligiga, hosil elementlarining shakllanishiga, don hosildorligi va donning biokimyoviy tarkibiga ta‘siri ijobiy bo‘lganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, kuzgi bug‘doy urug‘lari an’anaviy usulda ekilib, o‘sov davrida ma‘danli o‘g‘itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me‘yorlariga qo‘shimcha ravishda naychalash va boshoqlash fazalarida 0,6 l/ga me‘yorlarda bargi orqali “Temir UDK” mikroo‘g‘itini suspenziya sifatida qo‘llash don hosildorligini 65,4 s/ga, rentabellik darajasini 25,1 foizga, urug‘lari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish usulda ekilib, o‘sov davrida ma‘danli o‘g‘itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me‘yorlariga qo‘shimcha ravishda tuplash va naychalash fazalarida 0,8 l/ga me‘yorlarda bargi orqali “Combi Fe” mikroo‘g‘itini suspenziya sifatida qo‘llash don hosildorligini 77,0 s/ga, rentabellik darajasini 61,9 foiz bo‘lishi bo‘yicha ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi va keng joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi yumshoq bug‘doy yetishtirishda turli komponentli makro va mikroo‘g‘itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirish va ekish usullari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

G‘allachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun “Kuzgi yumshoq bug‘doyga an’anaviy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish usullarida temir tarkibli o‘g‘itlarni barg orqali qo‘llash samaradorligi” nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 18.02.2026 yildagi №05/05-03-93-son ma‘lumotnomasi). Mazkur tavsiyanoma fermer xo‘jaliklarida kuzgi yumshoq bug‘doydan tarkibida temir moddasiga boy bo‘lgan don hosili yetishtirishda muhim ko‘rsatma sifatida xizmat qilmoqda;

Kuzgi yumshoq bug‘doy urug‘larini resurstejamkor – tuproqqa ishlov bermasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekilib, ma‘danli o‘g‘itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me‘yorlariga qo‘shimcha sifatida bargidan “Combi Fe” va “Temir UDK” mikroo‘g‘itlarini suspenziya sifatida qo‘llash texnologiyasi Qarshi tumani “Mardon Asror Asilbek” fermer xo‘jaligida 17,0 gektar, “Sayfiyev Ismoil Abdiyevich” fermer xo‘jaligida 27,0 gektar, “Ortiqov Nosir” fermer xo‘jaligida 25 gektar, “Jo‘rayev Sherali” fermer xo‘jaligida 33,0 gektar, “Avaz Turob Suyarovich” fermer xo‘jaligida 35 gektar, “Jumanazarov Xondamir” fermer xo‘jaligida 34,0 gektar jami 171,0 gektar maydonga joriy qilingan. (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 18.02.2026 yildagi №05/05-03-93-son ma‘lumotnomasi). Natijada urug‘larini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekilib, ma‘danli o‘g‘itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me‘yorlariga qo‘shimcha ravishda bargidan “Combi Fe” va “Temir UDK” mikroo‘g‘itlarini suspenziya sifatida qo‘llanilganida yuqori samaradorlikka erishilgan;

Kuzgi yumshoq bug'doy urug'larini resurstejamkor – tuproqqa ishlov bermasdan to'g'ridan-to'g'ri ekilib, ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha sifatida bargidan "Combi Fe" va "Temir UDK" mikroo'g'itlarini suspenziya sifatida qo'llash texnologiyasi Qarshi tumanlarida joriy etilgan. (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 18.02.2026 yildagi №05/05-03-93-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu texnologiyani qo'llash orqali don hosildorligi 69,8-75,1 s/ga, rentabellik darajasi 50,9-61,2 foizga ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari har yili Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan. Mazkur tadqiqot natijalari Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekt va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Temir moddasining ahamiyati, bug'doy doni tarkibida temir moddasining miqdorlarini oshirish bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida, temirning tabiatdagi va tuproqdagi o'rni, o'simliklar va insoniyat uchun ahamiyati, donning texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri, kuzgi bug'doy yetishtirishda tuproqqa ishlov bermasdan ekish texnologiyasining ahamiyati va samaradorligini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari chop etilgan xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, internet ma'lumotlari keltirib o'tilgan. Natijalarning nazariy va amaliy natijalari tahlil qilinib, dissertatsiya ishining ilmiy maqsadi va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot olib borilgan xududning geografik joylashuv o'rni, tuproq va iqlim sharoitlari, tajriba o'tkazish usuli va uslubiyati, tajriba maydonida qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazilgan mintaqaning geografik joylashuv o'rni va tuproq hususiyatlari, hududning iqlim sharoitlari, tajriba o'tkazish usuli va uslublari, tajriba olib borilgan

maydonda qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar va tajribada o'rganilgan navning tasnifi to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari 2022-2024 yillari Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida joylashgan Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba dalalarida, och tusli bo'z tuproqlar sharoitida olib borilib, tajribada kuzgi bug'doyni turli (an'anaviy va to'g'ridan-to'g'ri) usullarda ekib, ma'danli o'g'itlar va suspenziyaning turli me'yorlari bilan oziqlantirishning yetishtirilgan don tarkibida temir moddasining o'zgarishiga ta'siri uch yil davomida o'rganildi.

Tajriba 30 ta variantdan iborat bo'lib, 3 takrorlanishda uch yarusda joylashtirilgan. Tajriba dalasida egat kengligi 90 sm, uzunligi 50 m. Har bir bo'lakchalar maydoni 360 m², hisobga olinadigan maydon 180 m². Tajribalarning umumiy maydoni 3,2 ga. Tajriba 3 yil davomida 1:1 (donli ekin – dukkakli ekin) qisqa potasiyali almashlab ekish tizimida olib borildi. Tajribada kuzgi bug'doyning Davlat restriga kipitilgan "Shukrona" navi ekilgan.


Tajribada urug' ekishning ikki xil (an'anaviy va to'g'ridan-to'g'ri) usullari, ma'danli o'g'itlarning uch xil (O'g'itsiz, N₁₈₀P₉₀K₆₀, N₂₁₀P₁₀₅K₇₅) me'yorlari va suspenziyaning besh xil turi va me'yorlari (Suspenziyasiz, Karbamid-15 kg/ga, Temir kuporasi-5 kg/ga, Combi Fe-0,8 l/ga, Temir UDK-0,6 l/ga) qo'llanilib o'rganilgan.

Dala va va ishlab chiqarish tajribalari, biometrik o'lchashlar, fenologik kuzatish va turli tahlillar «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», tuproqning agrofizikaviy tahlillarini o'tkazishda «Методы агрофизических исследований», tuproqni agrokimyoviy tahlil qilishda «Методы агрохимических анализов почв и растений» usulidan foydalanildi. Olingan dala tajribalaridan olingan natijalar SPSS-17 zamonaviy dasturi asosida matematik tahlil qilindi, don hosildorligini matematik-statistik tahlili esa В.А.Доспеховning "Методика полевого опыта" uslubiyati bo'yicha amalga oshirilgan.

Dissertasiyaning **"Kuzgi bug'doyga an'anaviy va to'g'ridan-to'g'ri ekish usullari, turli mineral o'g'itlar sharoitida ildizdan tashqari qo'llanilgan temir komponentli o'g'itlarning ta'siri"** deb nomlangan uchinchi bobida ekish usullari, mineral o'g'itlar me'yorlari hamda temir komponentli suspenziya turlari bilan bargidan oziqlantirish me'yorlarini ko'chat qalinligiga, o'suv davrining davomiyligiga, o'sib rivojlanishiga, barg sathining shakllanishi, biologik quruq modda to'plashi va fotosintez sof mahsuldorligiga, hosil elementlarining shakllanishiga, don hosildorligi va texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilingan.

Tajribada urug' ekish usullari, ma'danli o'g'itlar va suspenziya turlarini qo'llash me'yorlarini urug'larning unib chiqishi va amal davri oxirida xaqiqiy ko'chat qalinliklariga ta'siri variantlar kesimida o'rganib chiqilganida, amal davri boshida unib chiqqan ko'chatlar soni an'anaviy ekish usulida 325,7 dona/m² dan 356,9 dona/m² gacha, to'g'ridan-to'g'ri ekish usulida 3257 dona/m² dan 363,9 dona/m² gacha bo'lgani kuzatildi. Ammo, amal davri oxiriga borib, unib chiqqan ko'chatlarning yashovchanligi va xaqiqiy ko'chat qalinligi variantlar kesimida o'rganib chiqilganida, an'anaviy usulda ekilgan variantlar bo'yicha yuqori natijalar o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha

ravishda “Temir UDK” suspenziyasi bilan barg orqali 0,6 l/ga me’yorlarda qo‘llanilgan variantda qayd etilib, unib chiqqan ko‘chatlarning yashovchanligi 90,8 foizni, xaqiqiy ko‘chat qalinligi 314,9 dona/m² ni tashkil etgani holda, ma’danli o‘g‘itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me’yorlari qo‘llanilib, o‘suв davrida turli suspenziya me’yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan unib chiqqan ko‘chatlarning yashovchanligi 2,0-7,7 foizgacha, xaqiqiy ko‘chat qalinligi esa 2,6-44,2 dona/m² gacha yuqori natija ko‘rsatgani kuzatilgan bo‘lsa, to‘g‘ridan to‘g‘ri ekish usulda ekilgan variantlar bo‘yicha yuqori natijalar o‘suв davrida ma’danli o‘g‘itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me’yorlariga qo‘shimcha ravishda “Combi Fe” suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga me’yorlarda qo‘llanilgan variantda aniqlanib, unib chiqqan ko‘chatlarning yashovchanligi 89,9 foizni, xaqiqiy ko‘chat qalinligi 327,3 dona/m² ga teng bo‘lgani holda, ma’danli o‘g‘itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me’yorlari qo‘llanilib, o‘suв davrida turli suspenziya me’yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan unib chiqqan ko‘chatlarning yashovchanligi 1,1-5,2 foizgacha, xaqiqiy ko‘chat qalinligi esa 7,6-51,4 dona/m² gacha yuqori natija ko‘rsatgani aniqlangan.



1-rasm. Urug‘ ekish usullari, ma’danli o‘g‘itlar va suspenziya turlarini qo‘llash me’yorlarini urug‘larning unib chiqishi va amal davri oxirida xaqiqiy ko‘chat qalinliklariga ta’siri


Variantlarda parvarish qilinayotgan ko‘chatlarning umumiy va mahsuldor tuplanish ko‘rsatkichlariga urug‘ ekish usullari, ma’danli o‘g‘itlar va suspenziya turlarini qo‘llash me’yorlarining ta’siri tahlil qilinganida an’anaviy ekish usulida umumiy tuplanish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich o‘suв davrida ma’danli o‘g‘itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me’yorlariga qo‘shimcha ravishda “Combi Fe” suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga me’yorlarda qo‘llanilgan variantda aniqlanib, 1,9 dona/tup ni tashkil etgani holda ma’danli o‘g‘itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me’yorlari qo‘llanilib, o‘suв davrida turli suspenziya me’yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 0,1-0,7 dona/tup gacha, mahsuldor tuplanish

bo'yicha esa yuqori ko'rsatkich o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Temir UDK" suspenziyasi bilan barg orqali 0,6 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda aniqlanib, 1,6 dona/tup ni tashkil etgani holda ma'danli o'g'itlarning $N_0P_0K_0$; $N_{180}P_{90}K_{60}$; $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 0,1-0,7 dona/tup gacha ko'p bo'lganligi kuzatildi. To'g'ridan-to'g'ri ekish usulida ekilgan variantlarda umumiy tuplanish bo'yicha yuqori ko'rsatkich o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Combi Fe" suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda aniqlanib, 2,1 dona/tup ni tashkil etgani holda ma'danli o'g'itlarning $N_0P_0K_0$; $N_{180}P_{90}K_{60}$; $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 0,2-0,9 dona/tup gacha, mahsuldor tuplanish bo'yicha esa yuqori ko'rsatkich o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Karbamid" suspenziyasi bilan barg orqali 15,0 kg/ga, ma'danli o'g'itlarning $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Temir kuporasi" suspenziyasi bilan barg orqali 5,0 kg/ga, "Combi Fe" suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga, "Temir UDK" suspenziyasi bilan barg orqali 0,6 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda aniqlanib, 1,6 dona/tup ni tashkil etgani holda ma'danli o'g'itlarning $N_0P_0K_0$; $N_{180}P_{90}K_{60}$; $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 0,1-0,7 dona/tup gacha yuqori bo'lganligi qayd etilgan.

Kuzgi bug'doyning poya balandligi, umumiy va mahsuldor poyalar soniga urug' ekish usullari, ma'danli o'g'itlar va suspenziya turlarini qo'llash me'yorlarining ta'siri variantlar kesimida o'rganib chiqilganida, an'anaviy ekish usulida poya balandligi va umumiy poyalar soni bo'yicha yuqori natijalar o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Combi Fe" suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda qayd etilib, poya balandligi 99,1 sm, umumiy poyalar soni 561,1 dona/m² ni tashkil etgani holda ma'danli o'g'itlarning $N_0P_0K_0$; $N_{180}P_{90}K_{60}$; $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan poya balandligi 1,6-25,4 sm gacha, umumiy poyalar soni 3,1-255,0 dona/m² gacha, mahsuldor poyalar soni bo'yicha yuqori natijalar o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Temir UDK" suspenziyasi bilan barg orqali 0,6 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda qayd etilib, 475,9 dona/m² ga teng bo'lgani holda ma'danli o'g'itlarning $N_0P_0K_0$; $N_{180}P_{90}K_{60}$; $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 22,0-245,0 dona/m² gacha yuqori natija ko'rsatgani aniqlangan.

To'g'ridan-to'g'ri ekish usulida ekilgan variantlar bo'yicha yuqori poya balandligi va umumiy poyalar soni o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Combi Fe" suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda qayd etilib, poya balandligi 105,3 sm, umumiy poyalar soni 658,8 dona/m² ni ko'rsatgani holda ma'danli o'g'itlarning $N_0P_0K_0$; $N_{180}P_{90}K_{60}$; $N_{210}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli

suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan poya balandligi 0,4-31,4 sm gacha, umumiy poyalar soni 70,2-328,4 dona/m² gacha, mahsuldor poyalar soni bo'yicha yuqori natijalar o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Karbamid" suspenziyasi bilan barg orqali 15,0 kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda qayd etilib, 472,9 dona/m² ni tashkil etgani holda ma'danli o'g'itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 1,0-237,2 dona/m² gacha yuqori natija olingani ma'lum bo'lgan.



2-rasm. Urug' ekish usullari, ma'danli o'g'itlar va suspenziya turlarini qo'llash me'yorlarini poya balandligi, umumiy va mahsuldor poyalar soniga ta'siri

Kuzgi bug'doyda barg sathining shakllanishiga, quruq massa to'planishiga hamda fotosintez sof mahsuldorlik ko'rsatkichlariga urug' ekish usullari, ma'danli o'g'itlar va suspenziya turlarini qo'llash me'yorlarining ta'siri variantlar kesimida tahlil qilinganida, an'anaviy ekish usulida ekilgan variantlar bo'yicha barg sathining shakllanishi (boshqalash fazasida) va quruq massa to'plash jadalligi (mum pishish davrida) o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Temir kuporasi" suspenziyasi bilan barg orqali 5,0 kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda kuzatilib, barg sathi 184,0 sm²/tup, quruq massa to'plashi 8,3 g/tup ni tashkil etgani holda ma'danli o'g'itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan barg sathi 4,2-113,2 sm²/tup gacha, quruq massa to'planishi 0,8-3,9 g/tup gacha, fotosintez sof mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori natijalar o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Temir UDK" suspenziyasi bilan

barg orqali 0,6 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda qayd etilib, 9,7 g/m²/kunni ko'rsatgani holda ma'danli o'g'itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 0,3-5,3 g/m²/kungacha yuqori bo'lgani aniqlangan.


Urug'lar to'g'ridan-to'g'ri ekish usulida ekilgan variantlarda parvarish qilingan kuzgi bug'doy ekinida barg sathining shakllanishi, quruq massa to'plashi va fotosintez sof mahsuldorlik ko'rsatkichlari o'rganib chiqilganida, barg sathi bo'yicha yuqori natijalar o'suv davrida ma'danli o'g'itlar qo'llanilmasdan "Combi Fe" suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda kuzatilib, barg sathi 155,0 sm²/tup ni tashkil etgani holda ma'danli o'g'itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 7,6-79,0 sm²/tup gacha, quruq massa to'planishi bo'yicha yuqori natijalar o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Temir kuporasi" suspenziyasi bilan barg orqali 5,0 kg/ga me'yorda qo'llanilgan variantda qayd etilib, 7,7 g/tup ni ko'rsatgani holda ma'danli o'g'itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 0,5-4,1 g/tup gacha, fotosintez sof mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori natijalar o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Combi Fe" suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga va "Temir UDK" suspenziyasi bilan barg orqali 0,6 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantda qayd etilib, 10,9 g/m²/kunga teng bo'lgani holda ma'danli o'g'itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 0,3-5,5 g/m²/kungacha yuqori natija ko'rsatgani kuzatilgan.

Kuzgi bug'doyda hosil elementlarining shakllanishiga urug' ekish usullari, ma'danli o'g'itlar va suspenziya turlarini qo'llash me'yorlarining ta'siri variantlar kesimida tahlil qilib chiqilganida, an'anaviy ekish usulida ekilib, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Temir UDK" suspenziyasi bilan barg orqali 0,6 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantlarda kuzatilib, bir boshqoq uzunligi 9,1 sm, bitta boshqoqda donlar soni 42,3 donani tashkil etgani holda, ma'danli o'g'itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan bir boshqoq uzunligi 0,2-1,6 sm, bir boshqoqdagi donlar soni 0,2-17,4 donagacha, 1000 dona don vazni bo'yicha yuqori natija o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Temir UDK" suspenziyasi bilan barg orqali 0,6 l/ga me'yorida qo'llanilgan variantlarda aniqlanib, 41,1 g ni tashkil etgani holda, ma'danli o'g'itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorlari qo'llanilib, o'suv davrida turli suspenziya me'yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan 0,4-7,0 g gacha yuqori natija olingani qayd etilgan.

Urug'lar to'g'ridan to'g'ri ekish usulida ekilgan variantlarda hosil elementlarining shakllanishi variantlar kesimida tahlil qilinganida, o'suv davrida ma'danli o'g'itlarning N₁₈₀P₉₀K₆₀ kg/ga me'yorlariga qo'shimcha ravishda "Combi

Fe” suspenziyasi bilan barg orqali 0,8 l/ga me’yorida qo‘llanilgan variantda kuzatilib, bir boshqoq uzunligi 10,3 sm, bitta boshqoqda donlar soni 45,3 dona, 1000 dona don og‘irligi 43,5 g ga teng bo‘lgani holda, ma’danli o‘g‘itlarning N₀P₀K₀; N₁₈₀P₉₀K₆₀; N₂₁₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me’yorlari qo‘llanilib, o‘sov davrida turli suspenziya me’yorlari bilan bargi orqali ishlov berilgan variantlarga nisbatan bir boshqoq uzunligi 0,3-2,6 sm gacha, bir boshqodagi donlar soni 0,2-19,4 donagacha, 1000 dona don vazni 0,6-9,2 g gacha yuqori natija ko‘rsatgani ma’lum bo‘lgan.

